

XUSUSIYLASHTIRILGAN YER UCHASTKALARINING RAQAMLI XARITASINI TUZISH USULI

Egamova Dilchehra Adizovna

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy
tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni
boshqarish instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer uchastkalarining xususiylashtirish jarayoni, xususiylashtirilgan yer uchastkalarining raqamli xaritasini tuzish, texnologik sxemasi ishlab chiqish, va elektron raqamli xaritani shakllantirishda xizmat qiladigan ortofotoplanlar yaratilganligi hamda xususiylashtirilgan yer uchastkalari uchun geoma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan

Kalit so'zlar: Xususiylashtirish, yer uchastkasi, yer bozori, yer kadastri ma'lumotlari, yer uchastkasining bahosi, ko'chmas mulk, xususiylashtirish shakllari, elektron xarita, geoma'lumotlar bazasi, ortofotoplan, topografik-geodezik dala tadqiqot ishlari.

O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 6 may 1060-XII-son "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra respublikamizda ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, geoma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha ko'plab tashkilotlar qatori xususiylashtirilgan yer uchastkalari sohasida ham amalga oshirilgan ishlar sust yuritilganligi ilmiy izlanishlar natijasida aniqlandi. Shu sababli mazkur Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 11 dekabrda qabul qilingan va Senat

tomonidan 2021 yil 5 fevralda ma'qullangan. Geoma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha tajriba sifatida kadastr, arxitektura va qurilish, temir yo'llari, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi kabi sohalarni bugunga qadar amalga oshirilgan ishlari o'rganilib, bu borada oqsayotgan sohalarga tavsiyalar berish hamda maxorat almashinuvini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar maqsadi ham aynan geoma'lumotlar bazasini yaratish orqali elektron raqamli xaritalar tuzish va ularni yagona milliy geoaxborot bazasiga bog'lagan holda hukumatga tezkor xizmat ko'rsatishdan iborat.

O'rganishlar mobaynida xususiylashtirilgan yer uchaskalari sohasida obyektlarni geoma'lumotlar bazasida shakllantirilmaganligi aniqlanib, mazkur holat yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Izlanishlarga ko'ra geoma'lumotlar bazasini shakllantirish orqali elektron raqamli xaritasini tuzish qoniqarli darajada olib borilmaganligiga asosiy sabab geoaxborot tizimi oilasiga mansub dasturiy ta'minotlarda ishlovchi va zamonaviy geodezik asboblardan foydalanuvchi mutaxassislarni yetishmasligi ekanligi aniqlandi. Mazkur holat bo'yicha ilmiy ish natijalari ishlab chiqarish tashkilotlariga joriy etilib, tadqiqotchi tomonidan Buxoro viloyati bo'yicha faoliyat olib borayotgan davaktiv va davlat kadastrlar palatasi hodimlarining bu boradagi malakalari ham oshirildi.

Elektron raqamli xaritani shakllantirishda dastlab ortofotoplanlar yaratilib olindi. Bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari tahlil qilindi. Ushbu uslubga asoslangan holda va olib borilgan xususiylashtirilgan yer uchaskalarni raqamli xaritasini tuzishning texnologik sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm).

1-rasm. Xususiylashtirilgan yer uchaskalarini raqamli xaritasini tuzishning texnologik sxemasi

Xususiylashtirilgan yer uchaskalarni raqamli xaritasini tuzishning texnologik sxemasi foydalanib, elektron raqamli xaritasi ishlab chiqildi.

Raqamli xaritani ishlab chiqishda dastlab ortofotoplanlarni yuklab olish, geofazoviy bog'lash, transformatsiya qilish va vektorizatsiyalash bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Xususiylashtirilgan yer uchaskalarning raqamli xaritalarini tuzishda dastlab hududning fiziologiyasi o'rganilib, Buxoro viloyatining fiziografik xaritasi tuzib chiqildi. Fiziografikga ko'ra avtomobil yo'llar, bino va inshootlar, suv tarmoqlari, temir yo'llar va yer turlari ham shakllantirildi (3-rasm).

3-rasm. Buxoro viloyatining geoma'lumotlar bazasida shakllantirilgan fiziologik xaritasi

Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi xususiylashtirilgan yer uchaskalarida olib borilgan topografik dala tadqiqot natijasida hosil bo'lgan koordinata qiymatlarining katalogi yaratildi va ArcGIS dasturiga yuklandi.

Yuklangan vektor qatlamlarni chiziqli va maydonli turdagi mavzuli qatlamlarda birlashtirilishi natijasida hududning elektron raqamli xaritasi tuzildi (4-rasm).

4-rasm. Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi xususiylashtirilgan yer uchastkasining geoma'lumotlar bazasidagi elektron raqamli xaritasi

Tadqiqot hududidagi jami 197 ta xususiylashtirilgan yer uchaskalari maydonli ko'rinishda geografik joylashuvi raqamlashtirilib, shulardan Buxoro tumanidagi jami 17 ta xususiylashtirilgan yer uchaskalari maydonli ko'rinishida raqamlashtirildi. Maydonli ko'rinishida raqamlashtirilgan 197 ta xususiylashtirilgan yer uchaskalari 1:300 masshtabda geovizuallashtirilgan bo'lsa, Buxoro tumanidagidagi 17 ta xususiylashtirilgan yer uchaskalari 1:300 masshtabdagi topografik planini yaratish uchun dala tadqiqot ishlari olib borildi va geoma'lumotlar bazasidagi mavzuli qatlamlar asosida elektron raqamli xaritalari tuzib chiqildi.

Xulosa. Tadqiqotlar nihoyasida Buxoro viloyatidagi jami xususiylashtirilgan yer uchaskalarida topografik-geodezik dala tadqiqot ishlari olib borilib, geoma'lumotlar

bazasida elektron raqamli xaritasi shakllantirildi. Shu asnoda bugungi kunga qadar Buxoro viloyati bo'yicha geoma'lumotlar bazasida elektron raqamli xaritasi shakllantirilgan xususiylashtirilgan yer uchastkalari

100% ga yetkaziladi. Shu bilan birga geoma'lumotlar bazasi Buxoro viloyati davlat aktivlarni boshqarish agentligi va davlat kadastrlar palatasiga taqdim qilinib, topografik-geodezik dala tadqiqot ishlari, kartografik metodlar asosida geoma'lumotlar bazasini shakllantirish usuli dasturlash qoidalarini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-6243 8.06.2021
2. “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining qonuni, 15.11.2021
3. “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori, 2022-yil 14-fevral № 71
4. Altiyev A.S Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. Monografiya. T.: “Fan ”2018-145b
5. Egamova Dilchehra Adizovna, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). IMPROVEMENT OF SOIL RECLAMATION (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION). Euro-Asia Conferences, 5(1), 285–286.
6. Egamova, D. A., Azimova, S. J., Muxamadov, Q. M., & Bobojonov, S. (2021). LABOR RELATIONS ON THE FARM. Актуальные научные исследования в современном мире, (6-2), 23-26.

7. SB Adizov, AB Obidovich, MM Maxmudov - Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021 Rights and Responsibilities of the Spouses